

**UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA
IDORALARARO HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH MASALALARI**

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

mustaqil izlanuvchisi

Mirxamidov Mirmansur Mirshaxidovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy va yuqori texnologik tus olayotgan uyushgan hamda transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va tezkor bo‘linmalar o‘rtasidagi idoralararo hamkorlikni tashkil etishning nazariy-huquqiy va amaliy masalalari tahlil qilingan. Maqolada milliy qonunchilik asosida tarqoq harakatlardan voz kechish va yagona strategik maqsad atrofida jipslashish zarurati asoslangan. Shunga ko‘ra, raqamli platformalarni keng joriy etish, komplaens-nazorat tizimlari va xalqaro hamkorlik orqali jinoiy tuzilmalarning moliyaviy ildizlarini bloklash hamda profilaktika samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: uyushgan jinoyatchilik, idoralararo hamkorlik, tezkor-qidiruv faoliyati, ichki ishlar organlari, jamoat xavfsizligi, raqamlashtirish, komplaens-nazorat, transmilliy jinoyatchilik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, muvofiqlashtirish, axborot integratsiyasi, korrupsiyaga qarshi kurash, tezkor-taktik yo‘riqnoma, strategik sheriklik.

**ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ МЕЖВЕДОМСТВЕННОГО
ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В БОРЬБЕ С ОРГАНИЗОВАННОЙ
ПРЕСТУПНОСТЬЮ**

Мирхамидов Мирмансур Миршахидович

соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретико-правовые и практические вопросы организации межведомственного взаимодействия правоохранительных органов и оперативных подразделений в борьбе с современной высокотехнологичной организованной и транснациональной преступностью. На основе национального законодательства обоснована необходимость отказа от разобщенных действий и консолидации вокруг единой стратегической цели. В связи с этим выдвинуты предложения и рекомендации по широкому внедрению цифровых платформ, блокированию финансовых корней преступных структур посредством систем комплаенс-контроля и международного сотрудничества, а также по повышению эффективности профилактики.

Ключевые слова: организованная преступность, межведомственное взаимодействие, оперативно-розыскная деятельность, органы внутренних дел, общественная безопасность, цифровизация, комплаенс-контроль, транснациональная преступность, профилактика правонарушений, координация, интеграция информации, борьба с коррупцией, оперативно-тактический инструктаж, стратегическое партнерство.

ISSUES OF ORGANIZING INTERAGENCY COOPERATION IN COUNTERING ORGANIZED CRIME

Mirkhamidov Mirmansur Mirshakhidovich,

Independent Researcher at the Academy of the Ministry of

Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes theoretical, legal, and practical issues of organizing interagency cooperation between law enforcement agencies and

operational units in the fight against modern, high-tech organized and transnational crime. Based on national legislation, the necessity of moving away from fragmented actions and consolidating around a unified strategic goal is substantiated. Accordingly, proposals and recommendations are put forward regarding the widespread implementation of digital platforms, blocking the financial roots of criminal structures through compliance control systems and international cooperation, as well as enhancing the effectiveness of crime prevention.

Keywords: organized crime, interagency cooperation, operational-search activity, internal affairs bodies, public safety, digitalization, compliance control, transnational crime, crime prevention, coordination, information integration, anti-corruption, operational-tactical briefing, strategic partnership.

Uyushgan jinoyatchilik tobora yashirin va yuqori texnologik tus olayotgan bugungi kunda ichki ishlar organlarining tezkor-qidiruv faoliyatini to'liq ilmiy-tahliliy asosga o'tkazish hayotiy zaruratdir. Jinoiy guruhlar keng ildiz otmasdan turib, ularning zaif nuqtalariga aniq zarba berish uchun kuch va vositalarni byurokratik to'siqlarsiz, strategik va maqsadli taqsimlash talab etiladi. Shu bilan birga, jinoyatchilikning murakkab va ko'p tarmoqli xususiyati boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan idoralararo hamkorlikni, jumladan, vakolatlar chegarasini aniq belgilash va axborot almashinuvi integratsiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo qiladi.

Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi idoraviy hamkorlik masalalarida asosiy huquqiy manba hisoblanadi. Unda jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat organlarining asosiy burchi sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan idoraviy

hamkorlik bo‘linmalari bevosita ushbu konstitutsion vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi I.A. Nazarovning ilmiy yondashuviga ko‘ra, ichki ishlar organlarida idoraviy hamkorlik ya’ni xavfsizlikni ta’minlash va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ichki tuzilmalar o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan maqsadli faoliyatdir. Olim ushbu konsepsiyani yanada kengaytirib, mazkur jarayon faqatgina tizim ichidagi axborot almashinuvi va qo‘shma tezkor tadbirlar bilan cheklanib qolmay, balki keng miqyosdagi idoralararo aloqalarni ham to‘liq qamrab olishini asoslab beradi.

Bunda, IIOlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va davlat organlari (prokuratura, DXX, Milliy gvardiya, Davlat bojxona qo‘mitasi, Mudofaa vazirligi va boshqalar), mahalliy davlat hokimiyati institutlari, fuqarolik jamiyati vakillari hamda aholi bilan o‘zaro ishonchli munosabatlar asosidagi strategik sherikligi nazarda tutiladi. Olimning fikricha, ushbu ko‘p tarmoqli hamkorlikning bosh strategik maqsadi IIO xizmat faoliyatining natijadorligini tubdan oshirish, mavjud kuch va resurslardan oqilona foydalanish, kriminal tahdidlarga tezkor hamda muvofiqlashtirilgan tarzda javob qaytarish, shuningdek, axborotlarni to‘plash va tahlil qilish jarayoniga birlashgan raqamli yondashuvlarni keng joriy etishdan iboratdir [1].

Tadqiqotchilar S.Yu. Biryukov va A.P. Alekseevalar o‘zlarining ilmiy izlanishlarida uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonidagi tezkor-idoraviy hamkorlik masalalarini tahlil qilib, globallashtirish va raqamlashtirish tendensiyalari jadallashgan zamonaviy o‘zgarishlar sharoitida, eng avvalo, uyushgan jinoiy tuzilmalarning tuzilmaviy hamda sifat tarkibi, ularning jinoiy faoliyat yuritish sabab va shart-sharoitlari tubdan evolyusion o‘zgarishlarga uchraganligini asoslab beradilar [2]. Nazariy-metodologik nuqtai nazardan, uyushgan jinoiy birlashmalarning destruktiv faoliyati qat’iy ierarxik tuzilishga asoslangan, kriminal rejalar va g‘ayriqonuniy qilmishlarni oldindan strategik modellashtirishni nazarda tutuvchi hamda yuqori darajadagi taktik

maxfiylik rejimi ostida amalga oshiriluvchi tizimli harakatlar majmui sifatida tavsiflanadi.

Zamonaviy uyushgan jinoyatchilik yuqori texnologiyalar va intellektual usullar vositasida tobora murakkablashib, jinoyat izlarini niqoblashning mukammal darajasiga ko'tarilmoqda. Mazkur keng ko'lamli tahdidga qarshi to'rtta o'zaro bog'liq shaklda (jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya, ma'muriy-huquqiy va tezkor-qidiruv) tizimli kurashuvchi asosiy kuch bo'lgan ichki ishlar organlari bugungi kunda yanada jiddiy xatarga yuz tutmoqda. Xususan, kriminal tuzilmalar o'z qilmishlarini faqatgina raqamli vositalar bilan yashirib qolmay, balki o'z xavfsizligini kafolatlash va jinoiy mablag'larini kapitalizatsiya qilish maqsadida davlat hokimiyati va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimigacha yashirincha singgib kirishdek o'ta xavfli strategik usulni ham keng qo'llamoqda.

Tadqiqotchilar V.A. Bodrenkov va V.K. Znikinlar o'z tadqiqot ishlarida uyushgan jinoyatchilik bugungi kunda an'anaviy zo'ravonlikdan korrupsiyaviy mexanizmlarga tayanuvchi intellektual shakllarga o'zgarib borayotganligini, milliy yurisdiksiyalar chegarasidan chiqib ketayotganini ta'kidlaydilar [3]. Bunday transmilliy tahdidlarni jilovlash uchun Yu.B. Obolenskiy xalqaro konvensiyalardagi universal prinsiplarga tayanishni, davlatlararo huquqiy yordam mexanizmlarini tuzilmaviy kuchaytirishni hamda davlat va xususiy sektorda shaffoflikni ta'minlovchi korrupsiyaga qarshi komplaens-nazorat standartlarini keng joriy etishni taklif etadi [4].

Bizningcha, Yu.B. Obolenskiyning ilmiy asoslangan yondashuviga muvofiq, moliyaviy baquvvat va o'ta moslashuvchan zamonaviy uyushgan jinoyatchilikka faqat an'anaviy tezkor usullar bilan qarshi turib bo'lmaydi. Shu bois, transmilliy hamkorlikni kuchaytirish hamda davlat va xususiy sektorda shaffof komplaens-nazorat (antikorrupsiyaviy) tizimini joriy etish jinoiy tuzilmalarning institutsional negizlari va moliyaviy oqimlarini barvaqt bloklashning eng samarali vositasi hisoblanadi.

D.V. Grebelskiy ta'kidlaganidek, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ularning umumiy vazifalarni bajarishdagi muvofiqligiga bog'liq bo'lib, bu ayniqsa og'ir jinoyatlarni fosh etishda turli idoralarning tergov va tezkor bo'linmalarining teng mas'uliyatini taqozo etadi [5].

Mazkur o'ziga xoslik, ularning eng asosiy masaladagi birligini ya'ni inson, jamiyat va davlatni jinoiy tajovuzlardan himoya qilishdan iborat ijtimoiy vazifasini yanada bo'rttirib ko'rsatadi. Barcha idoralardagi tezkor va tergov bo'linmalarining o'zaro hamkorligining ushbu xususiyatiga mahalliy olimlardan D.E.Karimova[6], MDH olimlari V.A. Azarov, V.F. Statkus, A.A. Jidkix, M.A. Shmatov va boshqalar ham o'z ilmiy izlanishlarida alohida e'tibor qaratganlar [7].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida jinoyatlarning barvaqt oldini olish va unga qarshi tizimli kurashishning tuzilmaviy mexanizmlari yangi tahrirdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun [8] bilan tartibga solinib, uning 9-moddasida ichki ishlar, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati va boshqa sohaviy idoralardan iborat bo'lgan bevosita sub'ektlar tizimi va ularning vakolatlari aniq chegaralab berilgan [9].

Ushbu huquqiy poydevor Prezidentning PQ-2833-son qarori asosida yangi bosqichga ko'tarilib, kriminogen transformatsiyalar sharoitida tarqoq idoraviy harakatlardan voz kechish hamda davlat kuch va vositalarini vertikal va gorizontaal darajada yagona strategik maqsad atrofida jipslashtirish tizimi joriy etildi. Bugungi kunda mazkur idoralararo hamkorlik PQ-4075-son qaror talablari doirasida yanada raqamlashtirilib, "E-jamoat xavfsizligi" platformasi va yagona axborot tizimlari orqali real vaqt rejimida tezkor ma'lumot almashinuvini hamda ommaviy xavfsizlikni ta'minlashda sohaviy bo'linmalarining birgalikdagi faoliyatini avtomatizitsiyalashgan muvofiqlashtirishni kafolatlamoda [10].

Shuningdek, ayrim tadqiqot va amaliy kuzatuvlar idoralararo hamkorlik mexanizmlaridagi nomutanosibliklar natijasida profilaktik tadbirlarning samaradorligi shartli ravishda qoniqarli darajadan past holatda (45-50 foiz) ekanligini ko'rsatadi. Bu esa tizimda yagona axborot almashinuvi va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi [11].

Huquqni muhofaza qilish amaliyotini tizimli o'rganish hamda yuqorida bayon etilgan nazariy yondashuvlarni umumlashtirish natijasida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tezkor bo'linmalarining o'zaro hamkorligi tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Mazkur yo'nalishdagi hamkorlikni huquqiy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish maqsadida, eng avvalo, IIV sohaviy bo'linmalari o'rtasidagi aloqalarni aniq belgilovchi yagona idoraviy buyruq qabul qilinishi lozim. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumot almashish va hujjatlashtirish mexanizmini takomillashtirish, sohaga oid o'quv-uslubiy bazani boyish orqali tezkor xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish talab etiladi. Qolaversa, hamkor tuzilmalar rahbariyati boshchiligida shaxsiy tarkib ishtirokida qo'shma tezkor-taktik yo'riqnomalar o'tkazish amaliyotini tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy va intellektual tus olayotgan uyushgan hamda transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning tarqoq harakatlaridan voz kechib, ularni konstitutsiyaviy va qonunchilik bazasi asosida yagona strategik maqsad atrofida jipslashtirish hamda "E-jamoat xavfsizligi" kabi platformalar orqali raqamli axborot integratsiyasini ta'minlash hayotiy zaruratdir. Jinoiy tuzilmalarning korrupsiyaviy va moliyaviy ildizlarini barvaqt bloklash uchun nafaqat tezkor-qidiruv tadbirlari, balki komplaens-nazorat tizimlari va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish,

shuningdek, amaliyotdagi profilaktik ko'rsatkichlar mutanosibligini oshirish maqsadida yagona idoraviy buyruq qabul qilish, xodimlar malakasini boyitish va qo'shma tezkor-taktik yo'riqnomalar o'tkazishni tizimli yo'lga qo'yish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov I.A. Ichki ishlar organlari va davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlik va raqamlashtirish jarayonidagi zamonaviy yondashuvlar // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – Volume 4, Issue 8. – B. 88. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ichki-ishlar-organlari-va-davlat-idoralari-rtasidagi-amkorlik-va-ra-amlashtirish-zharayonidagi-zamonaviy-yondashuvlar/viewer>
2. Бирюков С.Ю., Алексеева А.П. Криминалистические методы преодоления противодействия раскрытию и расследованию преступлений, совершенных преступным сообществом // Вестник Волгоградской академии МВД России. – 2019. – № 4 (51). – С. 115–121.
3. Бодренков В.А., Зникин В.К. К началу дискуссии о содержании криминальной безопасности общества (государства) и роли ОРД в ее обеспечении // Оперативник (сыщик). – 2008. – № 2. – С. 17–23.
4. Оболенский Ю.Б. Вопросы противодействия организованной преступности // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Юридические науки. – 2021. – № 2. – С. 296–300.
5. Гребельский Д.В. Теоретические основы и организационно-правовые проблемы оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел. – М., 1977. – С. 90.
6. Каримова Д.Э. Совершенствование взаимодействия следователя органов внутренних дел с подразделениями уголовного розыска: Дис. док. фил. (PhD) по юрид. наук. – Ташкент, 2018. – С. 56.

7. Казакевич О.Ю. Два вида деятельности – цель одна // Сборник МВД СССР. – М., 1989. – № 2 (26). – С. 33-37; Азаров В.А. Уголовно-процессуальные и оперативно-розыскные средства достижения цели раскрытия преступлений // Государство и право. – 1997. – № 10. – С. 45-49; Статкус В.Ф., Жидких А.А. Органы предварительного расследования в системе МВД Российской Федерации: история, современное состояние и перспективы / под ред. В.А. Алферова. – М., 2000. – С. 10-11; Шматов М.А. Теория оперативно-розыскной деятельности в системе уголовно-правовых наук. – Волгоград, 2001. – С. 69-74.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-371-son Qonuni.
9. Babaxanov X.Q., Isaqov M.M. Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida idoralararo hamkorlik va muvofiqlashtirishni takomillashtirish yo‘nalishlari // CAJMRMS. – 2025. – Vol. 2, Issue 10. – B. 269.
10. Askarova B.P. Jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimida huquq-tartibotni ta‘minlash va ushbu yo‘nalishda o‘zaro maqsadli hamkorlikni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari // CAJEI. – 2025. – Vol. 4, Issue 12, Part 2. – B. 24.
11. Saitqulov Q.A., Isamiddinov S.G‘. Yoshlar tomondan sodir etilayotgan jinoyatlar profilaktikasining bugungi holati // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2026. – Часть-67, Том-3. – Б. 500. – URL: <https://scientific-jl.com/luch/>